

**O'ZBEK MILLIY PEDAGOGIKASI ASOSCHILARIDAN ABDULLA
AVLONIY VA UNING “TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ” KITOB.**

Samadova Sarvinoz Samad qizi.

BuxDU “Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrası” dotsenti. p.f.f.d. (PhD).

sarvinoz56646@gmail.com

***Annotatsiya.** XX-asr boshlarida Turkistonning ilm-fan, ma’rifiy va madaniy taraqqiyotidagi eng muhim namoyandalardan biri Abdulla Avloniydir. Uning milliy tarbiyaga oid asarlari, xususan, “Turkiy guliston yoxud axloq” kitobi tarbiyaviy nuqtai nazardan juda ahamiyatlidir. O'rta maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan ushbu kitob o'smirlarning shakllanish bosqichlariga e'tibor berishi bilan juda muhimdir. Yosh avlod tarbiyasida inson xulq-atvorini to'g'ri tasniflash ko'nikmasining shakllantirilishi Avloniyning yuksak pedagogik mahoratidan dalolatdir. Avloniy ta'lim-tarbiyaning axloqiy talqinini o'z faoliyatining asosiy maqsadi deb belgilagan. Ushbu maqolada Avloniyning pedagog sifatidagi faoliyati, milliy tarbiya haqidagi qarashlari muhokama qilinadi.*

***Kalit so`zlar:** Jadidchilik, Abdulla Avloniy, “Turkiy guliston yoxud axloq”, ta'lim, tarbiya, matbuot, til sofligi.*

**ИЗ ОСНОВАТЕЛЕЙ УЗБЕКСКОЙ НАЦИОНАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКИ:
АБДУЛЛА АВЛОНИЙ И ЕГО КНИГА «ТЮРКСКИЙ ГУЛИСТАН ИЛИ
НРАВСТВЕННОСТЬ»**

Самадова Сарвиноз Самад кызы

Доцент кафедры «Социально-политические науки» БухГУ, к.ф.н. (PhD)

sarvinoz56646@gmail.com

***Аннотация.** В начале XX века одним из важнейших представителей науки, просвещения и культурного развития Туркестана является Абдулла Авлоний. Его труды, посвящённые национальному воспитанию, в частности книга «Тюркский гулистан или нравственность», имеют большое значение с воспитательной точки зрения. Эта книга, предназначенная для учеников средней школы, важна тем, что уделяет внимание этапам формирования подростков. Формирование у молодого поколения навыка правильной*

классификации человеческого поведения свидетельствует о высоком педагогическом мастерстве Авлония. Авлоний определил нравственное толкование образования и воспитания как основную цель своей деятельности. В данной статье рассматривается деятельность Авлония как педагога и его взгляды на национальное воспитание.

Ключевые слова: джадидизм, Абдулла Авлоний, «Тюркский гулистан или нравственность», образование, воспитание, печать, чистота языка.

**FROM THE FOUNDERS OF UZBEK NATIONAL PEDAGOGY:
ABDULLA AVLONIY AND HIS BOOK “TURKIC GULISTAN OR
MORALITY”**

Samadova Sarvinoz Samad qizi

***Associate Professor, Department of “Socio-Political Sciences,” Bukhara State
University, PhD***

sarvinoz56646@gmail.com

Annotation. *At the beginning of the 20th century, one of the most important representatives of science, enlightenment, and cultural development in Turkestan was Abdulla Avloniy. His works devoted to national education, in particular the book “Turkic Gulistan or Morality”, are of great significance from an educational perspective. This book, intended for secondary school students, is especially important as it pays attention to the stages of adolescent development. The formation of the skill of correctly classifying human behavior in the upbringing of the younger generation testifies to Avloniy’s high pedagogical mastery. Avloniy defined the moral interpretation of education and upbringing as the main purpose of his activity. This article discusses Avloniy’s work as a teacher and his views on national education.*

Keywords: *Jadidism, Abdulla Avloniy, “Turkic Gulistan or Morality”, education, upbringing, press, purity of language.*

Kirish (Introduction)

Jadidchilik turkiy davlatlar — Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston tarixiga 19-asr oxiri — 20-asr boshlarida muhim ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy harakat

sifatida vujudga keldi. Jadidchilik harakatining asosiy g'oyasi madaniy harakat sifatida vujudga kelgan bo'lib, u birinchi navbatda ijtimoiy hayotni rivojlantirish, turkiy tillarni rivojlantirish, bu tillarda yangi adabiyotlarni shakllantirish va boyitish, dunyoviy fanlarni chuqurroq o'rganish, ilm-fan yutuqlaridan foydalanish, odamlar o'rtasida gender tengligi uchun kurashga qaratilgan.

XX- asrning boshlarida Turkistonning ilmiy, ma'rifiy va madaniy sohadagi eng muhim namoyandalardan biri bo'lgan Abdulla Avloniy alohida o'rin tutadi. Ko'rinib turibdiki, bu insonning sa'y-harakatlari, milliy matbuotda e'lon qilingan maqolalari, asarlari xalq ravnaqi uchun chinakam xizmat qilgan va bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolgan. Abdulla Avloniy ham yozuvchi, shoir, jurnalist, teatr artisti, pedagog, ustoz, olim sifatida o'z g'oya va orzularini ro'yobga chiqarish uchun tinimsiz mehnat qildi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

O'zbek milliy pedagogikasi asoschilaridan Abdulla Avloniy va uning "Turkiy guliston yoxud axloq" kitobiga doir ma'lumotlarni yoritishda davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning mavzuga oid qarorlari, Abdulla Avloniyning asarlari, Zunnunovkabi olimlarning asarlari hamda ilmiy maqolalaridan foydalanildi. Mazkur g'oyalarni ijtimoiy-falsafiy tahliletishda ilmiy bilishning analiz va sintez, retrospektiv tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik usul, sinergetik usullaridan foydalanilgan.

Natijalar va muhokama (Results and Discussions)

Abdulla Avloniy merosini o'rganish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Bu haqida Davlatimiz rahbari tomonidan 2020-yil 8-oktabr kuni "Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoyish imzolandi. Farmoyishda keltirilgan quyidagi so'zlari o'rinlidir: "Dunyoda global xavf-xatarlar kuchayib borayotgan hamda milliy o'zlikni anglash va haqiqiy tariximizni tiklash har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etayotgan bugungi davrda mustabid tuzum tomonidan shafqatsiz qatag'on qilingan davlat va jamoat arboblari, ilm-fan, madaniyat va san'at, adabiyot namoyandalarining, oddiy kasb

egasi bo'lgan minglab yurtdoshlarimizning nomlari va xotiralarini abadiylashtirish, ularning jasorati va matonati misolida yosh avlodimizni Vatanimiz va xalqimizga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda"[1.1].

Ma'lumki, atoqli adibning ilmiy merosi boy bo'lib, "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiyguliston yoxud axloq", "Maktab gulistoni" kabi asarlarida ta'lim-tarbiya borasida o'z fikrlarini bayon etadi. Ular orasida Abdulla Avloniyni shuhrat qozongan va uning nomini tarix sahifalariga muhrlagan asarlardan biri uning 1913-yilda nashr etilgan "Turk gulistoni yoxud axloq" nomli kitobi bo'lib, o'sha davrda bunday kitobga bo'lgan ehtiyojni hisobga olib 1917 yilda ikkinchi marta chop etiladi.

Muallif bu asarida axloq haqida fikr yuritib, "aqlining bolasi aqlli, ahmoqning bolasi ahmoq" kabi aqidalarga qarshi chiqadi va tarbiyaning hal qiluvchi ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Avloniy tarbiyani shunday tushuntiradi: "Tarbiya", "pedago`giya", ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur... Bolani salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, taninipok tutmak, yosh vaqtdan maslakni tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan asrab o'sdurmakdur"[3.12] Uning fikricha, tarbiya bola tug'ilgan kundan boshlanadi va umrining oxiriga qadar davom etadi. Tarbiya ikki bosqichdan – oila va maktab tarbiyasidan tashkil topadi. Oiladato'g'ri yo'lgaqo'yilgan tarbiyamaktab uchun kattamadaddirva aksincha, oiladategishli tarbiya ishlari olib borilmasa, bu hol maktabning ta'lim tarbiya ishini juda qiyinlashtirib qo'yadi deydi alloma.

Avloniy ta'lim-tarbiyaning axloqiy talqinini o'z faoliyatining asosiy maqsadi deb belgilagan. U odob-axloqni "odamlarni yaxshilikka chorlovchi, yomonlikdan saqlaydigan ilm" deb ta'riflab, "Yaxshi ishlarning yaxshiligi, yomon ishlarning yomonligini dalil va misollar bilan tushuntirib beruvchi kitob axloq deb ataladi, axloqni o'rgangan va amalda qo'llaganlar kimligini, Alloh taolo insonlarni nima uchun yaratganini, yer yuzida nimalar qilayotganini biladilar"[3.34], deb ta'kidlaydi.

O'rta maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan ushbu kitob o'smirlik davrining shakllanish bosqichlarini ko'rib chiqishda juda muhimdir. Yosh avlod

tarbiyasida inson xulq-atvorini to'g'ri tasniflash ko'nikmasining shakllanishi bilan tanishish Avloniyning yuksak pedagogik mahorati, kuchli badiiy mahoratidan dalolatdir. Avloniy bu asarida axloqiy kategoriyalar haqida fikr yuritarkan, birinchi o'rinda o'quvchilarni ko'zda tutadi. Ammo ularni bolalar tarbiyasigasingdirish vazifasini muallimlar zimmasiga yuklaydi. Demak, asar o'quvchilardan ko'proq muallimlar uchun yaratilganligiga ishonch hosil qilish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, Abdulla Avloniyning muallimlargaqarata aytgan quyidagi so'zlari asarning maqsadini to'laifodalaydi: "Fikr tarbiyasi engkerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinib kelingan, muallimlarning diqqatiga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir narsadur. Fikr insonning sharofatlik, g'ayratlik bo'lishiga sabab bo'latur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so'ng daraja muhtojdurkim, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'ludur. Ta'lim ila tarbiya orasida biroz farq bor bo'lsa ham, ikkisi biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kapidur." [3.13] Bu asar Shayx Muslihiddin Sheroziy asariga o'xshatma tarzida yaratilgan. Unda tarbiya va axloq masalalari birinchi marotaba XX asrning talab va ehtiyojlari nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Muallif asarni ikki qismga bo'lib, 34 yaxshi va 21 yomon xulq-atvorni Qur'on oyatlari va hadislar bilan birga buyuk allomalar Suqrot, Arastu, Ibn Sino, Mirzo Badil, Rumi, Shayx Sa'diylarning fikrlari bilan to'ldiradi.

Abdulla Avloniy tarbiyaning axloqqa ta'sirini tushuntirarkan, "Biz uchun tarbiya yo hayot-mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir" deb yozadi. U "Jaholat insoniyatning eng katta dushmani va yovuzlik sardori. Maorifdan, ilmdan, madaniyatdan mahrum xalq jaholat changalida eziladi" [3.74] deb takidlaydi

Shu bilan birga, Avloniy ta'lim va tarbiya uzviy bog'liq jarayonlar ekanini ham ta'kidlaydi: "Dars ila tarbiya orasida biroz farq bor bo'lsa ham, ikisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kapidur".

Avloniy insonga yaxshilik va ezgulik faqat ilm egallash orqali singadi degan qat'iy fikrni bildiradi. Ilmli, ezgu g'oya ruhida tarbiyalangan kishidagina vatan

tuygʻusi shakllanadi, ona yurti va ona tiliga muhabbat uygʻonadi, sadoqati qaror topadi. Bu fazilatlarsiz komil insonni tasavvur etib boʻlmaydi.

Abdulla Avloniy fikricha, har bir kishi oʻz hayotida oʻzgarishlar qilishi kerak. Chunki moddiy boylikdan mahrum, unga intilmayotgan xalqqa madaniyat va taraqqiyot haqida gapirish kutilgan natijani bermaydi. Eng muhimi, iqtisodiy madaniyat rivojlanishi kerak. Zero, “Zamonaviy zamonda mardlik boylikda, qaysi davlat va millat boy boʻlsa, uning qoʻli baland, chunki davlatga xalq, xalqqa kasb, kasbga ilm, ilmga pul kerak”[2.47]. Unga koʻra, ajdodlarimizning “Boʻlsa boʻldi, boʻlmasa bitdi” degan davri oʻtib, uning oʻrnini “Bilgan maqsadiga yetar, bilmagan yutqazadi” davri egallaganligini, zamonaviy inson boʻlib yetishish uchun bilim va maʼrifatdan tashqari tejamkorlik, halollik, toʻxtovsiz mehnat, tinimsiz gʻayrat ham talab etilishini takidlaydi.

Shuningdek, u oʻzining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida odob-axloqqa alohida urgʻu berib: “Odamni yaxshilikka chorlovchi, yomonlikdan qaytaruvchi ilmdir” [3.24]- deydi. Avloniy ilmni diniy va dunyoviy fanlarga ajratadi: “Dindor boʻlish uchun diniy ilmlarni bilish bilan birga hisob, hanas, tarix, hikmat, kimyo, tibbiyot va qishloq xoʻjaligini ham bilish kerak. Chunki bu ikki ilm ham oxiratimiz, hayotimiz va baxtimiz uchun eng muhim fanlardir” [3.49].

Muallifning alohida eʼtibor qaratgan yana bir ijobiy jihati til sofliги masalasidir. Maʼlumki, 20-asr boshlarida ilgʻor ziyolilar mahalliy bolalarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, oʻz Vatani, millati taqdiriga fidoyi kasb egalari boʻlib yetishishi uchun ona tilini oʻrganishi zarurligini matbuotda qayta-qayta taʼkidlagan edi. Rus tilini oʻrganish boʻyicha ham turli takliflar bildirildi. Shuningdek, rus tilini oʻrganish mahalliy til meʼyorlarini buzmasligi kerakligi aytadi. Masalan, Sadriddin Ayniy “Har bir xalq oʻz tili bilan faxrlanadi” maqolasida turkiy tilda bir xil maʼnoga ega boʻlsa ham, yevropacha soʻzlarni qoʻllash ona tiliga nisbatdan hurmatsizlik ekanligini taʼkidlagan.

Avloniy “Har bir millatning dunyoda borligin koʻrsatadurgʻon oyinai hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yoʻqotmak millat ruhini yoʻqotmakdur”, – deya uqtiradi. U shuningdek, soʻzning inson qadr-qimmatini belgilashdek mavqeyiga

umuminsoniy nuqtayi nazardan baho beradi. Til va soʻz odobi haqidagi fikrlarini shunday ifodalaydi: “Soʻz insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini oʻlchab koʻrsatadurgʻon tarozisidir. Aql sohiblari kishining fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini soʻzlagan soʻzidan bilurlar”. Alloma rostgoʻylik va toʻgʻrisoʻzlikni insonning eng muhim insoniy sifatlardan biri, deb baholaydi va bu borada shunday deydi: “Haqqoniyat deb ishda toʻgʻrilik, soʻzda rostlikni aytilur. Inson boʻstoni salomatga, gulzori saodatga haqqoniyat yoʻli ila chiqar. Insoniyatning ildizi oʻlan rahmdillik, haqshunoslik, odillik kabi eng yaxshi sifatlarning onosi haqqoniyatdur” [4.307].

Abdulla Avloniyning fikricha, insonni kamolotga yetkazishda bosh omil boʻlgan aql ilm va tajriba tufayli rivojlanadi. Ilm olish riyozat chekishni, saʼy-gʻayratni talab qiladi. Adib ilmning jamiyat taraqqiyotidagi rolini yaxshi tushunadi. Shuning uchun ham u yoshlarni ilm sirlarini bilishga, hodisalar mohiyatini anglashga chorlaydi. U yuksak bilim egallash yoʻlida, ayniqsa, kitob mutolaa qilishning foydasi katta ekanligini, unda hikmat koʻpligini zavq-shavq bilan gapiradi. Abdulla Avloniyning fikricha, dunyoda kitobdan yaxshi doʻst yoʻq.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Abdulla Avloniy atoqli pedagog, oʻqituvchi sifatida butunumrini maʼrifatgah bagʻishladi. Uning pedagogik qarashlarida Vatanga boʻlgan muhabbat, odob-axloq, tarbiya, maʼrifat, inson kamoli jamiyat rivoji uchun xizmat qilish yaqqol sezilib turadi. Ayniqsa, uning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari juda katta ahamiyatga molikdir. Taʼlim- tarbiyaga bagʻishlangannoyob va mukammal bu kitob har tomonlama yetuk, sogʻlom fikrli kelajak avlod va zamonaviy pedagoglarni tarbiyalashga xizmat qildi. Bu asarda mtafakkir vatanparvarlik, onatliga muhabbat, doʻstlik, vijdoniylik, hilmilik, aql, jaholat, gʻazab kabi xislat va illatlar haqida fikr yuritadi va xulosalar chiqaradi. Abdulla Avloniy ushbu asarida zamonaviy pedagogikaning nazariy va amaliy asoslarini yaratdi va asar zamonaviy pedagoglar tayyorlashga, darslik, qoʻllanmalar yaratilishiga asos boʻldi. Zero, bu inson pedagogika fanining asoschisidir. Uning pedagogika,

tarbiya haqidagi fikrlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi F-5598-sonli Farmoyishi 2020-yil 8-oktyabr.
2. Avloniy A. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. T.: “Sharq”.2006.
3. Avloniy A. “Turkiy Guliston yoxud axloq”. T.: “Sharq”. 1992.
- 4.ZunnunovA.Pedagogika tarixi. Darslik.–T.:“Sharq”,2004.
5. Samadova S.S. “The significance of the Jadids` scientific heritage in developing the spirituality of yourth in New Uzbekistan” // Intelektualitas: Jurnal Penelitian Lintas Keilmuan. Indonesia. Volum 1. Number 4.2025.
6. Samadova S.S. “The issue of education and upbringing in the spiritual heritage of the Jadids of Turkestan”// Cognizance Journal of Multidisciplinary Studies. Volume 5. Issue 1.2025.
7. Samadova.S.S. Jadidlarning ma`rifiy qarashlari va ta`lim tizimiga qo`shgan hissasi.// Pedagogik mahorat.2-son. 2025y.fevral.
8. Samadova S.S. The role of Jadid theater in the development of youth spirituality.//Journal of Multidisciplinary Academic Business Studies(JoMABS). Indonesia.Volume 2, Number 3, 2025.